



# MANAGEMENT AND ECONOMICS SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

MENEJMENT VA IQTISODIYOT  
ILMIY-TADQIQOT JURNALI

НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ  
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ



journals@timeedu.uz



+998 95 651 90 00

## MUNDARIJA

<b>Шарипов К.А., Хотамов И.С.</b>	Основные направления развития «зелёной» энергетики в Узбекистане.....	2
<b>Хашимов Б.А., Ахмедов Х.Д., Махкамова С.Г.</b>	Совершенствование учета поступления и выбытия нематериальных активов по договору обмена в нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан.....	10
<b>Narbayev Sh.K., Sadullayev S.N.</b>	Dehqon xo'jaliklarida yerdan foydalanish samaradorligining o'zgarish tendensiyalari.....	20
<b>Nosirova N.J.</b>	Reklama – marketing kommunikatsiyasining biznesga ta'siri.....	26
<b>Samadov A.N.</b>	Innovative Service Marketing: Russian Experience.....	34
<b>Temirov A.A.</b>	Prospects for digitalization of corporate governance in corporate structures of the Republic of Uzbekistan.....	42
<b>Sobirov A.A.</b>	Sanoat klasterlari – sanoat salohiyatini oshirishning strategik yo'naliishi sifatida.....	51
<b>Rajabov N.R., Adilova M.T., Xasanova N.N.</b>	Mintaqalar iqtisodiy-ekologik barqaror rivojlanishining tashqi va ichki tahdidlari.....	60
<b>Azlarova M.A.</b>	Waste management activities and methods.....	71
<b>Кадирова И.Б.</b>	Анализ состояния и тенденций развития свободных экономических зон в Республике Узбекистан.....	74
<b>Fozilova F.K.</b>	Importance of children's financial education and behavior	78
<b>Фарходова Ш.Ш.</b>	Новые тенденции развития современного менеджмента в цифровой экономике: проблемы и решения.....	83
<b>Ostanaqulov X.M.</b>	Sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning iqtisodiy ta'siri: O'zbekiston misolida.....	87
<b>Karrieva Y.K.</b>	Ways of development of innovative logistics in Uzbekistan	95
<b>Masharipova Sh.A.</b>	Transport-logistika klasterlari faoliyati bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....	100
<b>Xudayberdiyev O'.E</b>	Mamlakatda qoramolchilik mahsulotlari marketingini rivojlantirish yo'nalichlari.....	111
<b>Каримов В.А.</b>	Қишлоқ хўжалиги маҳсулот ишлаб чиқаришида қишлоқ хўжалиги техникаларининг аҳамияти .....	116
<b>Qahhorov Sh.G'.</b>	O'zbekiston tijorat banklarining "muammoli kreditlari"	122
<b>Мурадов Ф.Д.</b>	Конституция: ижтимоий адолатнинг кафолати .....	125
<b>Karimova S. T.</b>	Konstitutsiya – ishonchli kelajak va farovon hayot Qomusi	131
<b>Arziqulov E.A.</b>	Konstitutsiya farovon taraqqiyotimiz garovi.....	137
<b>Azim Davron.</b>	Jadid matbuoti: Ismoil Gasprali va Hamza Hakimzoda.....	142
<b>Baxanurov O. O.</b>	Digital Currencies and Central Banks: An Analysis from a National Economic Security Perspective	148
<b>Akbarov Sh.X.</b>	Raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali korxonalarda HR menejment tizimini takomillashtirish ("O'zbekiston temir yo'llar" AJ misoolida)	155
<b>Kodirov S.Q.</b>	Logistika va Iqtisodiyot	160

## JADID MATBUOTI: ISMOIL GASPRALI VA HAMZA HAKIMZODA

**Azim Davron**

*Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti dotsenti  
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Maqolada jadidlar matbuotining paydo bo'lishi, Ismoil Gaspralining matbuotga qo'shgan hissasi, Hamzaning jadidlar safiga kirib kelishida Ismoil Gasprali va uning "Tarjimon" gazetasining o'rni, matbuot orqali jadidlarning o'zaro hamkorlik qilishi va jadid matbuotining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** jadidlar harakatining boshlanishi, Ismoil Gasprali, "Tarjimon" gazetasi, "Mukolamai salotin" asari, Laziz Qayumov, Yusuf Sultanov, Naim Karimov, Ulug'bek Dolimov, Begali Qosimov, Hamza Hakimzoda, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon.

**Annotation.** This article diskusses the emergence of the jadid press, Ismail Gasprali's contrubition to the press, the press, the role of Ismail Gasprali and his "Tarjiman" newspaper in Hamza's entry into the Jadids through the press, and the importanse of Jadid press.

**Key words:** the beginning of the Jadid movement, Ismail Gasprali, "Tarjiman" newspaper, "Mukolamai salatin" work, Laziz Qayumov, Yusuf Sultanov, Naim Karimov, Ulug'bek Dolimov, Begali Kasimov, Hamza Hakimzoda, Abdulla Avloni, Abdulhamid Cholpon.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается возникновение джадидской прессы, вклад Исаиля Гаспрали в прессу, роль Исаиля Гаспрали и его газета «Тарджиман» во вступление Хамзы в ряды джадидов, взаимное сотрудничество джадидов через прессу, и важность джадидской прессы.

**Ключевые слова:** начало джадидского движения, Исайль Гаспрали, газета «Тарджиман», произведение «Муколамай салотин», Лазиз Каюмов, Юсуф Султанов, Наим Каримов, Улугбек Долимов, Бегали Касимов, Хамза Хакимзода, Абдулла Авлони, Абдулхамид Чулпон.

Jadidchilik harakatining boshlanishi, rivojlanishi, taraqqiy etishi va dunyoga keng tarqalishida jadid matbuotining o'rni va ahamiyati katta bo'ldi. Jadid matbuoti musulmon olaming uygonishida juda muhim va dolzarb vazifani ado etdi.

Tarixdan ma'lumki, turkiy xalqlar mustamlakachi davlatlarning mustamlakasi ostida ezilar edi. Taraqqiyat parvar jadidlar mustamlakadan qutulish yo'llarini qidirar edi. XIX asrning ikkinchi yarmida dunyoning juda ko'p mamlakatlarida, jumladan, Rossiya, Turkiya, Eron, Hindiston, Arabiston va Turkistonda jadidchilik harakatlari

boshlanib ketdi. Bu harakat musulmon dunyosining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, diniy hayotida muhim o'zgarishlarni yasadi. Jadidchilik harakatining bosh g'oya va maqsadi, mustamlakadan ozod bo'lish, mustaqillik va taraqqiyotga erishish edi. Jadidlar o'z maqsadlariga erishish yo'lida barcha imkoniyatlarni ishga soldilar. Jumladan, yangi usuldagagi "usuli jadid" maktablarini ochdilar. Maktablar uchun darsliklar yozdilar. Nashriyotlar ochib, gazeta, jurnal, kitoblar chop etdilari. Teatrlar ochib, erksiz xalq hayotini sahnada namoyish qildilar. Jadidlar erishgan natijalarini keng musulmon

olamiga tarqatish, ommaga targ'ib qilish zarurati paydo bo'ldi. Bu targ'ibot matbuot orqali amalga oshirildi.

Jadid matbuoti musulmon olamiga buyuk ma'rifatparvar jadid Ismoilbek Gasprali nomi bilan kirib keldi. Ismoilbek Gasprali qrim-tatar millatiga mansub bo'lib, turkiy xalqlarning eng faol vakillaridan biri edi. Ismoilbek Gasprali 1883- yilning 10-aprelida Qrimda "Tarjimon" gazetasiga asos soldi. Ushbu gazetaning dunyoga kelishi jadidlar orasida olamshumul voqeа bo'ldi. Ismoilbek Gasprali 1884-yilda Bog'chasaroyda dastlabki "usuli jadid" maktabini ochadi va u maktabda olib borgan pedagogik faoliyati haqida "Tarjimon" sahifalarida ma'lumotlar berib boradi. Shuningdek, Rossiya mustamlakasi ostida ezilgan barcha musulmon xalqlari maorifini tubdan isloh qilish, dunyoviy fanlarni o'qitish masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligi haqidagi ilg'or fikrlarni ham ana shu gazeta orqali aytadi. Gazetada e'lon qilinayotgan har bir xabar barcha musulmon davlatlar, xususan, Turkiston jadidlari uchun muhim edi. Gazeta qo'lma-qo'l bo'lib barchaga birday yetib borar edi.

Ismoil Gasprali "Tarjimon" gazetasining 1906-yil 22-dekabrdagi 144-soni, 25-dekabrdagi 145-soni, 1907-yil 8-yanvardagi 3-soni, 22-yanvardagi 7-sonida "Mukolamai salotin" nomli asarini e'lon qiladi. Mazkur asarni Qo'qon madrasalarida tahsil olib yurgan Hamza, madrasa mudarrislaridan berkitib, qiziqish bilan o'qiydi. Hamza "Tarjimon" gazetasi bilan Bog'chasaroyda tanishadi. Ismoil Gaspralining ayni "Mukolamai salotin" asari

gazetada bosilgan mahalda Hamza ota-si ibn Yamin Niyoz o'g'lini Haj ziyoratiga kuzatish maqsadida Bog'chasaroyga boradi. Ushbu ma'lumotlar Hamza ijodi bilan shug'ullangan barcha Hamza-shunoslar tadqiqotlarida aks etgan.

Hamzashunos olim Laziz Qayumov "Hamza" nomli monografiyasida Hamzaning "Tarjimai holi"dan quyidagicha iqtibos keltiradi: "... 1907-yili otam hajga ketishi munosabati-ila sayohatga borib, birinchi marta Boq-chasaroyda chiqadigan "Vaqt", "Tarjimon" gazetalarini o'qishga shundan o'rganib qaytdim. Shundan boshlab, kundan kun eski xurofotlarni, madrasa o'qishlarini, xalq tirikchiligidagi o'zgarishlarni, madaniyat, iqtisod degan masalalarni tekshirishga kira boshladim" [1].

Laziz Qayumov Hamzaning "Tarjimai holi"dan to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etgan. Hamza haqiqatdan, 1907-yilda otasi ibn Yamin Niyoz o'g'lini Bog'chasaroy gacha kuzatib boradi. Ismoil Gaspralining "usuli jadid" maktabidagi faolyati va "Mukolamai salotin" asarini "Tarjimon" gazetasidan o'qiydi.

Hamzashunos olim Yusuf Sultonov "Hamza hayoti va ijodi haqida ocherk" nomli monografiyasida Hamzaning mana bunday so'zлari bilan tanishtiradi: "Ko'p uzoq emas, - deydi u keyinroq yozgan xotiralaridan birida, - 1908-yillarda ham madrasada o'qib yurgan vaqtimizda gazeta, jurnallarni birovlar nomiga yozdirib olib, qo'ltig'imizda yashirib, shu madrasaning qozon qo'yadigan qorong'i hujralarida eshikni ichidan beklab, o'shanda ham qo'rqib-qo'rqib o'qir edik" [2].

Yusuf Sultonov taqdim etgan ma'lumotlar Laziz Qayumov fikrini to'ldiradi va tasdiqlaydi. Mazkur ma'lumotlarni tasdiqlash uchun yana bir necha misollar keltirish mumkin.

Akademik Naim Karimovning Ismoil Gasprali haqida yozgan "Turkiy dunyo yulduzi" nomli maqolasida ham yuqorida yuritilgan fikrlar to'ldirilgan: "XX asr boshlarida bu gazetaga yozilish u yoqda tursin, hatto uni o'qish ham taqiqlanardi. Turkistondag'i jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy 1908-yili Namangan madrasalarining birida tahsil ko'rganida, "madrasaning qozon qo'yadigan qorong'u hujralarinda eshikni ichidan beklab, o'shanda ham qo'rquq-qo'rquq" o'qiganini yozgan. Shunday xavf-xatarlarga qaramay, yangi davrning - ma'rifat va madaniyat davrining g'oyalariga tashnalik Hamzadan ham, boshqa turkistonlik yoshlardan ham "Tarjimon"ga obuna bo'lishni va uni muntazam ravishda o'qib borishni taqozo etgan"[3].

Professor Ulug'bek Dolimov "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" darsligida Hamzaning aynan, "Tarjimon" gazetasini muntazam kuzatib borgani haqida quyidagi fikrlarni yozadi: "Tarjimon" gazetasini muntazam kuzatib borgan Hamza Gaspralining 1906–1907-yillarda shu gazeta sahifalarida bosilgan, butun turk olamining, shu jumladan, Turkiston o'lkasining mustamlaka asorati botqog'iga tushib qolishi sabablari haqida bahs yurituvchi "Mukolamai salotin" asari bilan tanish bo'lgan"[4].

Demak, yuqorida hamzashunos olimlar taqdim etgan ma'lumotlarga

ko'ra, Hamza jadid ma'rifatparvar pedagogi, shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, publisisti bo'lib yetishuvida jadid matbuotining xususan, Ismoil Gasprali hamda uning "Tarjimon" gazetasining o'rni va ahamiyati katta bo'lgan. Ayniqsa, "Tarjimon"da e'lon qilingan maorif islohoti haqidagi maqolalar va "Mukolamai salotin" asari Hamza dunyoqarashining o'zgarishiga asos bo'lgan deb aytish mumkin. Hamza "Mukolamai salotin" ("Sultonlar suhbat") dan turkiy xalqlar tarixi, ularning tanazzulga yuz tutishi, musulmon dunyosini jaholatdan qutqarish yo'llarini o'rgangan.

Ismoil Gaspralining "Tarjimon" gazetasi nafaqat Hamzaga, balki butun musulmon olamiga aloqa vositasi, robita vazifasini bajardi. U davrning eng dolzarb muammolarini yoritdi. 1906–1907-yillarda Hamza "Tarjimon" gazetasini o'qish bilan kifoyalanmay, Fotih Karimiyning "Vaqt" gazetasi, Rizo Faxriddinning "Sho'ro" jurnali, shular bilan birga, o'zbek tilida Toshkentda chiqa boshlagan Ismoil Obidiyning "Taraqqiy", Munavvarqori Abdurashidxon o'g'lining "Xurshid", Abdulla Avloniyning "Shuhrat" gazetalari bilan ham yaqindan tanishadi. Bu gazetalar ham Hamza hayoti va faoliyatida muhim o'rin tutadi. Hamza mazkur gazetalar orqali jadid ma'rifatparvarlari bilan o'zaro ijodiy aloqalar o'rnatadi. Hamzaning ilk she'rlari va maqolalari mana shu gazeta va jurnallarda bosiladi.

1914-yil 10-sentabrda jadid matbuotining asoschisi Ismoil Gasprali vafot etadi. Ismoil Gasprali vafoti munosabati bilan Mahmudxo'ja Behbudiy

maqola, Abdulla Avloniy, Sadreddin Ayniy, Siddiqiy Ajziy, Tavallolar she'r, shular qatorida Hamza Hakimzoda ham o'z hamdardligini bildirib, "Yav-mul-vafot" sarlavhali ("Sadoyi Farg'ona", 1914-yil 24-sentabr) maqola va "Marsiya" nomli ("Sadoyi Farg'ona", 1914-yil 28-sentabr) she'rini e'lon qiladi. She'rda shunday misralar bor:

Oh, millat, yetdi bu dam qayg'ulik,  
g'amlik zamon,

Tegdi og'zingga halokat toshi, emdi  
to'la qon,

Dod qil davri falakdan, botdi xurshidi jahon,

Motam ayla, og'lasun ahvolinga  
har insu jon,

Ko'k sari uchdi Masiho jismlar jondan  
judo,

Ya'ni takrori taraqqiy murg'i shabxonidan  
judo [5].

Hamza Hakimzoda Niyoziy g'o-yibona ustoziga nisbatan, cheksiz hurmat va ehtiromini ushbu maqola va marsiyasida ifoda etib, Ismoil Gaspralining farzandlariga cheksiz hurmat va ehtiromini izhor etadi.

Ismoil Gasprali vafotidan bir kun oldin farzandlariga vasiyat qiladi. Ushbu vasiyat Naim Karimovning "Turkiy dunyo yulduzi" nomli maqolasida quyidagicha aks etadi: "Men kechadan boshlab o'zimni yomon his etmakh-daman. Bu holatning nihoyasi shu kunlarda ma'lum bo'ladi. Dunyoga kelgach, bir kuni hammamiz, albatta, vafot etib ketamiz... Mening so'zlarimdan g'am-g'ussaga tushmang... Bu dunyoda tug'ilish tabiiy bo'lganidek, o'lish ham, demak, tabiiydir... Peshonaga yozilganini ko'ramiz. Men sizlarga o'z vasiyatimni aytaman..., ... "Tarjimon"

bo'linmaydi, shoyad hech qachon bo'linib ketmasa. Farzandlarim o'sha joyda ishlashsin va tushgan foydadan bahramand bo'lib umrguzaronlik qilishsin. Umid qilamanki, o'g'lliarim "Tarjimon" ning so'nishiga aslo yo'l qo'ymayajaklar" [6].

Vasiyatdan ma'lum bo'lishicha, Ismoil Gasprali "Tarjimon" gazetasining keyingi taqdiridan havotir olgan. "Tarjimon" gazetasining faoliyati uzoq yillar davom etishi va u farzandlarining kelajagini ta'minlashini istagan.

1914-yilning aprel oyida ya'ni, Ismoil Gasprali vafotidan bir necha oy oldinroq, Turkistondagi taraqqiy parvar jadidlarning faol harakati bilan go'yoki uning vasiyatini oldindan bilgandek, Toshkentda "Sadoi Turkiston", Farg'onada "Sadoi Farg'ona" gazetalarining faoliyati yo'lga qo'yilgan edi. Har ikkala gazeta ham "Tarjimon" gazetasining davomchilari sifatida maydonga kelgan.

"Sadoi Turkiston" gazetasida Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulla Avloniy faoliyati haqidagi ma'lumotlar professor Begali Qosimovning "Zamondoshlar maslakdoshlar" [7] nomli maqolasida taqdim qilingan. Olimning yozishiga ko'ra, 1914-yil 4-aprelda Toshkentda "Sadoi Turkiston" gazetasining

1-soni bosilib chiqadi. Gazetaning faoliyati bir yilcha davom etib, 66 ta soni chop etiladi. Gazetaning 1914-yil 11-may 9-sonida Hamzaning "Ahvolimiz" sarlavhali she'ri bosiladi. Shu davrda Abdulla Avloniy "Sadoi Turkiston" tahririyatida faoliyat yuritadi. Hamza va Avloniy o'rtasidagi mushtarak madsad va munosabatlarni "Sadoi Turkiston" gazetasi yuzaga chiqaradi.

1914-yil 4-apreldan 22-avgust-gacha "Sadoi Turkiston" sahifalarida 15 ta shoirning 40 taga yaqin she'rlari chop etilgan. Ushbu she'rlar 1914-yil 22-avgustda "Sabzazor" nomi ostida alohida kitob holida bosilib chiqqan. Kitobga kiritilgan she'rlarning 14 tasi Avloniyga tegishli, qolganlari Hamza va boshqa shoirlar ijodidan bo'lgan. Bu ma'lumotlar orqali "Sadoi Turkiston" gazetasi atrofida to'plangan ma'rifat-parvar shoirlar o'zaro bir-biri bilan tanishgani, hamfikr va hammaslak bo'lganiga guvoh bo'lamiz.

1914-yilda Chelyabinskda tatar tilida chiqib turgan "Oqmulla" satirik jurnalining muxbir Maxmud Budayli redaksiya yo'llanmasi bilan Toshkentga keladi. Toshkentda "Sadoi Turkiston" gazetasi tahririyatiga har kuni borib turadi va u yerda Abdulla Avloniy, Mirmuhsin Shermuhammedov hamda Hamza Hakimzoda bilan tanishadi. "Sadoi Turkiston" gazetasi va uning xodimlari Mahmud Budayli xotirasida chuqur iz qoldiradi. Mahmud Budaylining xotiralari keyinchalik, 1971-yilda "Guliston" jurnalining 11-sonida maqola sifatida e'lon qilinadi. Bu maqolada shunday fikrlar yoziladi: "Sadoi Turkiston" mahalliy xalq o'qiydigan ancha nufuzli gazeta edi... O'sha paytda ko'nlimda chuqur taassurot qoldirgan kishilardan biri Abdulla Avloniy bo'ldi. U o'zbekning taniqli ziyolisi, adibi, hokisor, zakiy ta'b kishisi edi... Sho'x va hazilkash Hamza uni "xudoning eng begunoh bandasi deb, do'stiga tegajaklik qilardi" ("Guliston" jurnali, 1971-yil, 11-son, 24-bet.) Mazkur ma'lumot ham jadidshunos olim Begali Qosimov maqolasida bayon qilingan

bo'lib, "Tarjimon" gazetasining davomchi avlod "Sadoi Turkiston" gazetasining jadidlar hayoti va faoliyatidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatib beradi. "Sadoi Turkiston" gazetasi iste'dodli jadidlarning babs va kurash maydoni aylanadi, unda davrning ijtimoiy-siyosiy muammolari ko'proq she'riyatda aks etadi. Jadidlar o'rtasidagi bunday bahsli munozaralarning yuzaga chiqishida va turkiy xalqlarning birlashuvida jadidlar matbuotining o'rni katta bo'ladi.

1914-yilda "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" gazetalarida Hamzaning "Ahvolimiz", "Ramazon", "Muxammas bar g'azali Avloniy Toshkandiy", "Gapurmanglar" kabi milliy adabiyotning kelgisidagi vazifalarini belgilovchi she'rlari bosiladi. Bu she'rlar andijonlik shoir Cho'lponning e'tiborini tortadi. Cho'lponda Hamza va uning ijodiga nisbatan yuksak hurmat va mehr uyg'onadi. Matbuotda Hamzaning she'rlari bilan muntazam tanishib borgan Abdulhamid Cho'lpon 1916-yil 6-dekabrda Hamzaga maktub yuboradi. Maktubda: "Muhtaram Hamza afandi! Iltimos qilaman, ushbu xatni oluv bilan tezlik ila "Sadoi Turkiston" ning birinchi adadig'a bir yaxshi she'r, gazeta xususinda, yozub yuboring. Adres bu: Andijan, redaksiya gazety "Turkestanskiy golos", "Sadoi Turkiston" uchun. Ehtirom bilan idora nomina Abdulhamid" [8] – deb yozadi.

Maktubdan ma'lum bo'lishicha, Cho'lpon 1916-yilda Andijonda "Sadoi Turkiston" gazetasining shahobchasini ochgan va Hamzadan gazetani targ'ib etuvchi she'r yozib berishni iltimos qilgan. Hamza uning iltimosini bajargan.

Jadidlar matbuoti Turkistonning barcha shaharlarida ana shu tarzda ko'paya borgan. Lekin ularning rivojlanishi mustamlakachilar tomonidan ta'qibga uchrab yopib qo'yilavergan.

1917-yilga kelib, Hamza Qo'qonda avval "Kengash", so'ng "Hurriyat" jurnallarini tashkil qilgan. Bu jurnalarda Hamza hurriyat, erk, ma'rifat va ozodlikni targ'ib qilgan. Hamzaning bunday faol harakati albatta, mustamlakachilarga yoqmagan. Ana shu sababga ko'ra, u jurnallar faoliyati uzoqqa cho'zilmagan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, jadid matbuoti, xususan, Ismoil Gaspralining "Tarjimon" gazetasi Hamza Hakimzoda Niyoziy hayotida muhim o'rin tutdi. Ayni shu gazetada e'lon qilingan dolzarb mavzudagi maqolalar

va "Mukolamai salotin" asari Hamzaning dunyoqarashida o'zgarish yasadi. Jadidlar matbuoti Hamzaga Turkistonning boshqa jadidlar bilan tanishish imkonini yaratdi. Bu imkoniyat bahslashish, kurashish, ijodiy rivojlanish, millat taraqqiyotini belgilash, turkiy xalqlarning birlashuvi va hamkorlik masalalarini yuzaga chiqardi.

Hamza chinakam jadid ma'rifat-parvari bo'lib yetishdi. Hamza matbuotda maqola, she'r va boshqa badiiy, publitsistik asarlarini e'lon qilish bilan birga, o'zi ham "Kengash" va "Hurriyat" jurnallarini ta'sis etishga muvaffaq bo'ldi. Tarraqiyot va ma'rifatning qotili bo'lgan hukmron mafkura bunday xayrli ishlarning uzoqqa cho'zilishiga yo'l bermadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Қаюмов Л. Ҳамза, Ажойиб кишилар ҳаёти,(Ижтимоий ва ижодий фаолияти ҳақида илмий лавҳалар). – Тошкент, 1973. – 262 б.
2. Султонов Ю. Ҳамза ҳаёти ва ижоди ҳақида очерк. – Тошкент, 1979. – 150 б.
3. Каримов Н. Туркий дунё юлдузи, И smoil Гаспринский ва Туркистан, – Тошкент. 2005. – 288 б.
4. Қосимов Б, Юсупов Ш, Долимов У, Ризаев Ш, Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент, 2004. – 248 б.
5. Ниёзий ҲҲ. Тўла асарлар тўплами, 5 жилдлик, 4-жилд. – Тошкент, 1989. – 348 б.
6. Қосимов Б. Замондошлар, маслакдошлар. – Т.: Шарқ юлдози, 1979 йил, 6-сон.
7. Каримов Н. Ҳамза ва Чўлпон, XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент, 2008. – 151 б.

**Ingliz tili muharriri:** Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi  
**Musahhih:** Vahobova Marfua Mirkamalovna  
**Sahifalovchi va dizayner:** Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

---

## 2024. 1-son

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda “**Management and Economics Scientific Research Journal**” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamatardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El. pochta: [journals@timeedu.uz](mailto:journals@timeedu.uz)

Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami: C-5669639

PNFL: 308906510

---

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani  
Shota Rustaveli ko'chasi, 114